



TIJORAT BANKLARIDA KREDIT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR

**Murotova Mashrabxon
Axmadjon qizi**

Bank moliya akademiyasi magistranti

Kredit siyosati bank strategiyasining bir bo'lagi sifatida kredit bozorida bankning harakat qilishidan ko'zlagan maqsadini, tamoyillarini va yo'nalishlarini o'z ichiga oladi, taktik jihatdan esa moliyaviy yoki boshqa instrumentlarni, kredit bitimlarini amalga oshirishdan bankning maqsadlariga erishish yo'nalishlari va qoidalarini hamda kredit jarayonini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Kredit siyosati kredit risklarini kamaytirish orqali bankning xavfsizligi, likvidligi va rentabelligini ta'minlash maqsadida kreditlash bo'yicha oldindan belgilangan qoida va yechimlar majmuasi asosida tashkil qilingan kredit portfelini boshqarish sohasidagi bankning strategiyasi va taktikasidir. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa omillarni inobatga olgan holda mustaqil o'zining kredit siyosatini ishlab chiqishi va olib borishi mumkin.

Odatda, kredit operatsiyalari bank foydasining asosiy qismini tashkil qiladi. Shuni inobatga olgan holda banklar o'z kredit siyosatini ishlab chiqishda va olib borishda kredit operatsiyalaridan keladigan daromad va urlarning samarali olib borilishiga katta e'tibor berilishi lozim. Bankning kredit operatsiyalarini olib borish va ularning samaradorligi uchun javob berish bankning direktorlar kengashiga yuklatiladi. Direktorlar kengashi kreditlarni berish bilan bog'liq vazifalarni boshqaruvning quyi tabaqalariga yuklaydi. Kredit siyosati hay'ati kreditni qaysi sohalarga berish, kredit berishning umumiy tamoyillari uni berishdagi cheklanishlar va boshqalarni ishlab chiqadi hamda shularning amalga oshirilishini nazorat qilib borishi lozim.

Hozirgi kunda tijorat banklari mustaqil ravishda o'z kredit siyosatini ishlab chiqadilar. Lekin amaliyot shuni ko'rsatadiki, ba'zi banklar faoliyatida bu siyosatni ishlab chiqishda ma'lum kamchiliklarni ko'rish mumkin.

Birinchidan, kredit siyosatini ishlab chiqishda ko'proq bosh banklar aktiv rol o'ynab ular har doim ham bankning quyi bo'g'inlarining kredit ishlarini inobatga olmaydigan holatlarni uchratish mumkin.

Ikkinchidan, bank salmog'i katta-kichikligidan qat'i nazar har bir bank hodimi bankning kredit siyosatining hech bo'lmaganda maqsadi, umumiy yo'nalishlari bilan tanish bo'lishi, ularning bajarilishi bo'yicha faoliyat olib borishi lozim.

Ko'pgina tijorat banklari kredit siyosatida asosiy e'tibor kreditlar bo'yicha erkinlik, kredit turlari, kreditlarni to'lash, foiz stavkalari, kredit bo'yicha garov qiymati va uning baholanishi, mijoz to'g'risida moliyaviy axborot, o'z vaqtida to'lanmagan va muddati kechiktirilgan kreditlar, bank kengashi va boshqaruviga beriladigan hisobotlar, kreditlarning konsentratsiyasi, aloqador shaxslar bilan ishlash tamoyillari, risklarni baholash, kredit portfelini audit qilish kabi yo'nalishlarni o'z ichiga olishi ko'zda tutilgan bo'lsada, ularning mohiyatini ochib berishda ba'zi bir noaniqliklar mavjud. Masalan, kreditlarni konsentratsiya qilish to'g'risidagi yo'nalishda kreditlarning turi, hududiy joylanishi va boshqa belgilari bo'yicha konsentratsiya qilish lozim deyilsa, yana shunday kreditlar konsentratsiyasi banklarni katta zararlarga qo'yishi mumkinligi tasidlanadi. Yoki mijozlarning moliyaviy ahvolini ifodalovchi kreditga layoqatlilik ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotni ifodalovchi kreditning bahosi va samaradorligini ko'rsatuvchi yo'nalishlar keltirilmagan. Tijorat banklari kredit siyosatini ishlab chiqishda ish yo'nalishlar bo'yicha aniq ma'lumot va hujjatlarga ega bo'lishi va kredit siyosati sifatida rejalashtirishlari, bizning fikrimizcha, banklarni katta risklardan himoya qilishi mumkin. Undan tashqari yuqorida keltirilgan kreditni konsentratsiyalash bo'limiga kreditlarni diversifikatsiyalash va kredit berishdagi cheklovlar bo'limini birlashtirib yaxlit bo'lim kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tijorat banklari tomonidan kredit operatsiyalarini to'la-to'kis olib borish ular tomonidan kredit siyosatining qay darajada tashkil etilganligiga bog'liq. Har bir bank siyosiy, iqtisodiy, tashkiliy va boshqa jihatlarni hisobga olgan holda, o'z kredit siyosatini shakllantirishi bank kreditlashining muhim jihati hisoblanadi. Bu kreditlarni boshqarishning asosi hisoblanadi.

Oqilona kredit siyosati bank kredit portfeli sifatining oshishiga olib keladi. Tegishli ravishda, kredit siyosatining maqsadi, huquqiy tartibga solish diapozoni, mablag' olish imkoniyati, eng yuqori risk darajasi, ssuda portfeli balansi, muddatlar bo'yicha majburiyatlar va aktivlar tuzilmasini hisobga olish kerak. Shuningdek kredit siyosatini ishlab chiqishda asosiy tamoyillarga alohida e'tibor qaratish lozim.